



## ABDURAUF FITRATNING “OILA” ASARI UCHUN YOZILGAN TEZIS

**Xalilova Ruxsora Raupovna,**  
*Buxoro davlat pedagogika instituti*  
*O'zbek tili va adabiyoti*  
*kafedrasi dotsenti*  
**Tolibova Maftuna Zokir qizi,**  
*O'zbek tili va adabiyoti*  
*Kafedrasi magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu tezisda oilani qanday baxtli barpo qilish haqida fikr yuritiladi. Uni qaysi prinsiplar asosida shakllantirish, saqlab qolish kabi g'oyalar ilgari surilgan.

**Annotation:** This thesis explores how to build a happy family. It presents ideas on the principles upon which a family should be formed and how it can be preserved.

**Kalit so‘zlar:** oila, ayol, erkak, asar, A. Fitrat, farzand, ilm.

**Keywords:** family, woman, man, work, A. Fitrat, child, knowledge.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Vatan ham biz tug'ilgan oilaning ostonasidan boshlanadi. Ko'ksi qalqon, mardona jadidchilardan biri bo'l mish A. Fitratning "Oila" deb nomlangan asari jamiyatning yosh avlodlari uchun ham, katta avlod vakillari uchun ham juda o'rini, manfaatli asar hisoblanadi. Nega deganda, asarda qanday juft tanlash, qanday oila boshqarish, arning va ayolning vazifalari chiroyli g'oyalar bilan yoritilgan. Bu asarni ikki qismga ajratish mumkin: birinchisi oila qurgancha bo'lgan davr; ikkinchisi farzand va uning tarbiyasi xususida. Asar har bir o'quvchiga, kitobxonga, endigina oila qurish arafasida turgan har bir yigit, qiz uchun asosiy yo'riqnomaligi bilan bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Chunki bunda birgina muallifning ijodiy va tajribaviy yondashuvi bo'lmasdan, Qur'oni Karim hamda hadislardan kerakli o'rirlarda namunalar keltirgan. Masalan: ayollarga mehrli bo'lish to'g'risida: Qur'on ("Niso" surasi)da shunday oyat nozildir: "Ayollarga yaxshi muomalada bo'linglar". [4]

Oysha (r. a.)dan rivoyat bor: "Nabiy (s. a. v.) dedilar: "Eng komil mo'minlar xushxulq va oilasi bilan luft ila munosabat qiladiganlardir. O'z xotinlariga tanti kishi yaxshilik qiladi va nomardi yomonlik". [1]

Ushbu "Oila boshqarish" asari oilaga ilk qadam qo'yishdan boshlab, yor tanlash, mahr masalasi, to'y marosimi, isrofgarchilik, er-xotinning bir-biriga munosabati, farzandga ism qo'yish, jismoniy; axloqiy; ruhiy tarbiyasi, ilm olish sirlari, ota-onaga munosabat singari sabablar aniq, ravshan bayon qilingani uchun o'qilishi kerak bo'lgan asarlardan biridir.

Buni biz hech ikkilanmay o'lmas, nodir asar desak bo'ladi. Negaki "oila" atalmish muqaddas qo'rkon aynan bugungi kunga kelib, arzimagan janjallar-u, injiqlik, noshukrlik, sabrsizliklarni deb turli ziddiyatlar tufayli jar yoqasiga kelib qolyapti. Mana shunday





tushunmovchiliklarning oldini olish uchun yoinki, yechim izlash uchun bu asarning har bir qismi qimmatlidir. Ushbu ilmiy-publisistik asarda nafaqat o'z davrining dolzARB masalalarida yozilgan, balki, bugungi kunning muammolariga yechim sifatida e'tirof etiladigan o'rnlari beqiyos. [3]

Shu o'rinda muallifning "Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida" nomli mavzusida aytgan fikrlarini keltirish joiz deb bildim. "Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan-qancha tahqir va jafolarga duchor bo'lib yashamoqdalar. Biz turkistonliklar o'z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o'ylaymiz va u bechoralarga odamga qilingandek muomala qilmaymiz."

Darhaqiqat, bugungi kunda ham shunday oilalar, johil erlar yo'q emas. Ularning nazdida xotinlari dard-u hasratlari bilan birga qamalib, yana kamiga bola tarbiyasini ham, uy yumushlarini-yu, ernen buyruqlarini do'ndirishlari kerak. Axir bu razillik emasmi? Shu ahvolda ma'rifikatga, ilmga qaram yashagan ayol farzandlariga hech qanaqasiga na ta'lim, na tarbiya bera olmaydi. G'azabnok er esa guldek oilasini asrab qololmaydi. Xalqimizda o'g'lingni o'qitsang bitta farzandingni o'qitibsan, qizingni o'qitsang butun jamiyatni o'qitibsan degan gap bor. Xuddi shunday rivojlanayotgan texnologiya asrida qizlarimizni, ayollarimizni erkaklar qatori birdek ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni olishlarini lozim deb hisoblayman.

Alhamdulillah! Hozirgi kunda uyda o'tirib qolgan ko'pgina ayollar, yoshlar o'quv markazlariga borib, yokida online o'rganib rivojlanmoqda.

Fikrimning so'ngida shuni xulosa qilamanki, men bu assardan ayolga qilinadigan munosabat, ernen haq-huquqlari, juft tanlashda e'tiborga loyiq jihatlar farzandning o'zi kabi tarbiyasi ham oliy ne'matligini umuman olganda oila muqaddasligining mohiyatini tushunib yetdim. Oila a'zolari bilan har bir masalada qanday murosa-yu madora qilish borasida foydasi beqiyos nasihatlarni qulqlarimga zirak qilib oldim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Fitrat. Oila boshqarish tartiblari. – T.: Ma'naviyat, 2009-y.
2. A. Fitrat. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2009-y.
3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlod. 2005-y.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasi. – T.: Hilol nashr, 2022-y.